


2021- yil yanvar-aprel
oylarida
SURXONDARYO VILOYATI
xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 031,6 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **830,9 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

**830,9
mlrd. so'mga**

Hajmning o'sishi

**3031,6
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

125,9 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 3 031,6 | 125,9 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 145,1 | 119,1 |
| Moliyaviy xizmatlar | 592,1 | 125,6 |
| Transport xizmatlari | 467,0 | 129,4 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 443,1 | 129,3 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 94,6 | 118,3 |
| Savdo xizmatlari | 1 113,8 | 113,0 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 75,0 | 138,2 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 138,6 | 186,3 |
| Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar | 47,0 | 165,2 |
| Ijara xizmatlari | 111,4 | 221,7 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 79,8 | 139,4 |
| Shaxsiy xizmatlar | 82,0 | 133,6 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 28,0 | 124,7 |
| Boshqa xizmatlar | 57,2 | 126,3 |


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **36,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,6 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **40,1 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda – **1,0 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish ijara (**2,2 marta %**), ta'lim (**86,3 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**65,2 %**), shuningdek, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**39,4 %**) qayd etildi.

Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining nisbatan pasayishi moliyaviy xizmatlari (**1,9 %**) sohasida qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **127,5 %**.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda – **36,0 %** ga pasayish kuzatilgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taq qoslanishi, % da



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-aprel



2021- y. yanvar-aprel



2021- yil yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **61,3 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida yo'lovch tashish xizmatlarining ulushi **67,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **36,7 %** ni tashkil etib, bu esa **1113,8 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **883,5 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **40,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

883,5

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

1113,8

91,5

O'sish sur'ati, % da

113,0

2020- y. yanvar-aprel

2021- y. yanvar-aprel

2021- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **84,8 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **82,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **592,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **445,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **19,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **20,3 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **146,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar- aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **25,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **127,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,5 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,2 %** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **3,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **95,2 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **3,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,7 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-aprel oylarida)

2021- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **145,1** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **119,1 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turi hajmi **118,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiylajmiy hajmining **5,4 %** iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **109,4 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **95,7 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar- aprel

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **138,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **186,3 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **72,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **3,3 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

68,4 mlrd.
so'm

2020- y.
yanvar-aprel

94,6 mlrd.
so'm

2021- y.
yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi

77,7 %

118,3 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **26,2 mlrd. so'mga** ortdi.

2021- yil yanvar- aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar- aprel

92,0 %

8,0 %

6,5 %

93,5 %



2020- y. yanvar- aprel

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar- aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,0 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar- aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar- aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-aprel

2021- y.

26,9
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

47,0
mlrd. so'm

98,5 %

O'sish
sur'ati

165,2 %

1,2 %

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

1,6 %




2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-aprel oylarida)



2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **28,5 %** (2020- yil yanvar-aprel oylarida – **28,0 %**) ni Termiz shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,2 %** (2020- yil yanvar-aprel oylarida – **2,7 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|--|------------------------------|-----------------------------|-----------------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Surxondaryo viloyati | 3031,6 | 125,9 | 94,1 |
| Termiz sh. | 862,7 | 128,0 | 102,7 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 119,0 | 123,6 | 86,6 |
| Angor | 133,3 | 124,7 | 85,8 |
| Bandixon | 95,3 | 122,9 | 86,3 |
| Boysun | 66,6 | 122,7 | 86,9 |
| Muzrabot | 137,3 | 124,9 | 85,4 |
| Denov | 369,7 | 127,7 | 90,5 |
| Jarqo'rg'on | 181,2 | 124,2 | 87,8 |
| Qumqo'rg'on | 181,8 | 125,8 | 88,8 |
| Qiziriq | 124,0 | 124,9 | 86,3 |
| Sariosiyo | 180,3 | 125,6 | 87,2 |
| Termiz | 134,0 | 125,2 | 85,9 |
| Uzun | 127,7 | 123,3 | 86,0 |
| Sherobod | 165,5 | 124,9 | 86,8 |
| Sho'rchi | 153,2 | 124,0 | 87,8 |

2021- yil yanvar- aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

1 128,3
ming so'm



Hajmning o'sishi

293,1
ming so'mga



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 128,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **123,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **835,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- may holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari



2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi


Ularning umumiyligi

2021- yil yanvar- aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,0** %, sanoat **16,0** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,2** % ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,8** % ga to'g'ri keladi.

**2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **65,3** % ni, sanoat **14,0** % ni, qurilish **11,4** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **9,3** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(46,7 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **10,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,9 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,8 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 46,7

Boshqa turdag'i xizmatlar – 34,0

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 10,1

Tashish va saqlash – 4,9

Axborot va aloqa – 1,8

Sog'liqni saqlash – 2,5


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik sub'yeqtleri milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 65,9 % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining hissasi 54,9 % ga to'g'ri keldi.

